

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ  
ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**БУХОРО МУСИҚА  
ФОЛЬКЛОРНИНГ ТАРИХИЙ-  
НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ  
МАСАЛАЛАРИ**

**Республика илмий-назарий анжуман материаллари**

**2020 йил 6 ноябрь**

**БУХОРО – 2020**

Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий- назарий ва амалий масалалари // Республика илмий-назарий анжумани. Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2020 й. – 244 бет.

### **Анжуманнинг дастурий қўмитаси**

1. О.Х. Хамидов – университет ректори, раис
2. О.С. Қаҳҳоров – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис ўринбосари
3. Б.Х. Мадримов – Санъатшунослик факультети декани, аъзо
4. У.М. Миршаев – Мусиқа таълими кафедраси мудири в.в.б., аъзо
5. С.Д. Дўстов – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси п.ф.н. доцент, аъзо
6. Д.Ю. Рўзиев – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси п.ф.н. доцент, аъзо
7. З. Алаева – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, котиба

### **Анжуманнинг ташкилий қўмитаси:**

1. Ж.Т. Ярашев- Мусиқа таълими кафедраси катта ўқитувчиси Р.һ.д., аъзо
2. Т.И. Ражабов – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, аъзо
3. И.А. Қўшаев – Мусиқа таълими кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо
4. Ф.Г. Нуруллаев – Мусиқа таълими кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо
5. Т.Дж. Мухамедов – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, аъзо

### **Масъул муҳаррир:**

Б.Х.Мадримов, педагогика фанлари номзоди, профессор

### **Такризчи:**

Д.Ю. Рўзиев, педагогика фанлари номзоди, доцент

### **Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:**

Б.Т. Жўраев

## FOLKLOR QO‘SHIKLARINING LOKAL (MAHALLIY) IJRO USLUBLARI

S.I Shamsiyev

O‘zbek xalqining musiqa merosida, asosan, to‘rtta mahalliy uslub hududlari Buxoro-Samarkand, Surxondaryo - Qashkadaryo, Fargona-Toshkent hamda Xorazm uslublari mavjud bo‘lib ular o‘z ijro xususiyatlariga egadir. Bu xududlarda mahalliy uslublarning paydo bo‘lishi, ma‘lum etnik birlik hamda umumijtimoiy-iktisodiy sharoitning natijasidir. O‘zbekistonning janubiy viloyatlari Surxondaryo va Qashkadaryoning katta qismi respublikaning boshqa o‘lkalaridan farqli ularoq yaqin o‘tmishda ham, asosan, chorvachilik, faqat bir qismigina dehqonchilik bilan shug‘ullanib, ko‘chmanchi holda hayot kechirar edi. Bu viloyatlar musiqa folklorida chorvadorlar mehnati haqida, o‘tmishda esa ko‘chmanchilik hayoti to‘g‘risidagi qo‘shiqlarning xarakterli o‘rni egallashi ham shundan kelib chiqqan. Bu xudud musika xayotida doston ijrochilari – baxshilar muhim o‘rin tutadi. O‘lkada xalq cholg‘u asboblari turi ham ancha chegaralangan bo‘lib, ulardan do‘mbira yetakchi soz sifatida keng tarqalgan.

Surxondaryo va Qashkadaryodan farqli ularoq qadimda O‘rta Osiyoning madaniy markazlaridan sanalgan Buxoro va Samarqandda o‘zbek musiqa san‘atining xususiyatlari deyarli boshkacharoqdir, bu xususiyatlar meros tematikasi va janrlari hamda musiqa hayoti tamoyiliga taalluqlidir. Buxoro va Samarqand lokal uslubi xususiyatlarining muhim farqi – bu yerda musiqa merosi va ijrochiligining ikki turga – og‘zaki an‘anadagi kasbiy musiqa va folklor janrlariga bo‘linishida, ya‘ni musiqa merosida qadim davrlardan boshlab professional musiqaning shakllanib rivoj tapganidadir. Musiqa folklorining mohir namoyandalari bilan bir qatorda bu yerda professional sozanda va xonandalar katta o‘rin tutib, ular maqom va boshqa professional musiqa janrlarining bilimdon ijrochilari sifatida tanilib qolganlar. Shuningdek, kichik shakldagi ma‘lum turkumni tashkil etuvchi xilma-xil mazmunga ega bo‘lgan raqs-o‘yin qo‘shiqlarining ijrochi – sozandalari ham keng e‘tibor topganligini ko‘rish mumkin. Bu qadimiy shaharlarda milliy sozlar turlarining boyligi, marosim kuy-qo‘shiqlarining xilma-xilligi xarakterli bo‘lishi bilan birga, eng yaxshi ijrochi xonanda va sozandalar ishtirokida musiqa va she‘riyat kechalarining muntazam o‘tkazilib turishi ham odat bo‘lgan edi. Shu bilan birga turmush va yashash sharoitining shaharcha tarzi ashulachilar, raqqos va raqqosalar hamda sozandalar ansambllarining o‘ziga xos tusda keng rivojlanishiga ham imkon bergan edi.

Buxoro va Samarqand viloyatlariga xos bo‘lgan musiqa folklori ko‘p jihatdan tojik xalq musiqasi bilan umumiylikka ega bo‘lib, tarixiy taqdiri deyarli bir xil bo‘lgan har ikkala qardosh xalq, ya‘ni o‘zbeklar va tojiklarning babbaravar darajadagi musiqiy merosi hisoblanadi. Jumladan Shashmaqom bunga yorokin misol bo‘la oladi.

Farg‘ona-Toshkent musiqa folklori ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan

ajralib turadi. Bu yerda ixcham hajmli oddiy, ammo jozibador va mavzusiga ko‘ra xilma-xil kuy-qo‘shiqlar muhim o‘rin tutadi. Bu xududda xususan xotin-qizlar qo‘shig‘i mashhurdir. Farg‘ona vodiysida hamda Toshkent viloyatida katta ashula janri esa, aksincha keng diapazonli (hajmli) rivojlangan kuyning regetativ-deklamatsion xarakterdaligi bilan ajralib turadi. Bu sof mahalliy janr, yuqorida aytganimizdek, ikki-uch va undan ortik hofizlar tomonidan an‘anaviy uslubda cholg‘u asboblari jo‘rligisiz ijro etilib kelinmokda.

Xorazm mahalliy uslubi ustida to‘xtaladigan bo‘lsak, u o‘zining ijro uslubi bilan ajralib turadi. Xorazm mahalliy qo‘shiqlarining intonatsion – kuy tuzilishi hamda talqiniga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Xorazm uslubining turkman va ozarbayjon musiqasi bilan ma‘lum umumiylik birligi mavjud. Xorazm xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos mahalliy xususiyatlariga dostonlar ijrosi ham taalluqlidir. Agar O‘zbekistonning barcha viloyatlarida doston musiqasi, odatda, regetativ – deklamatsion yoki ohangdor-regetativ xarakterda bo‘lsa, Xorazmda ular yorokin ifodali qo‘shiqlari bilan farq qiladi hamda O‘zbekistonning boshqa viloyatlarida bo‘lganidek, do‘mbira bilan emas, balki dutor, tor yoki an‘anaviy cholg‘u ansambli – bulamon, qo‘shnay va dutor jo‘rligida aytiladi.

Xorazm cholg‘u asboblari ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, yuqorida eslatilgan bulamon sozi respublikamizning faqat Xorazm viloyatida uchraydi. Ayni paytda bu yerda do‘mbira cholg‘usi umuman uchramaydi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, bugungi kungacha Xorazmda keng foydalanib kelinayotgan garmon sozi ham xuddi shu o‘lka mahalliy uslubining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib qoldi. Xorazm cholg‘ulari o‘zining tuzilishi va tembr-akustik tamoyillarida namoyon bo‘ladi. Xorazm dutori kosaxonasi hajmining nisbatan kichikligi, dastasining ingichka va kaltaligi hamda o‘z akustik –tembr xususiyatlariga ko‘ra O‘zbekistonning boshqa lokal zonalariga, xususan Farg‘ona vodiysida rasm bo‘lgan dutorlardan farq qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, xalq hayotining ma‘lum tarixiy sharoiti natijasi hisoblangan barcha mahalliy uslublarda o‘zbek xalq musikasining umummilliy belgilari yorokin ifodalangan degan xulosaga kelish mumkin. Buxoro-Samarkand turkumlari:

Ma‘lumki Respublikamizning ko‘pgina viloyatlarida o‘ziga xos ijro uslubida yaratilgan kuy va qo‘shiqlar mavjud. Ularning ko‘pchiligi turkum shaklida tashkil topgan. Ana shunday turkumlardan biri Buxoroda yaratilib, Samarqandda va boshqa ayrim viloyatlarda ijro etilayotgan “Buxorcha” va “Mavrigi” ashula va raqs turkumidir. Buxoroyi Sharif nafaqat “Shashmaqom”ning, balki shu qutlug‘ yurt nomini sharaflovchi “Buxorcha” hamda “Mavrigi” singari xalqona ashulalari raqslardan tarkib topgan bebaxo musiqiy turkumlarning vatani sifatida ham mashhurdir. Bunday turkumlardan “Buxorcha” va “Mavrigi”lar quyidagi tarkibiy tuzilishlarga ega. “Buxorcha” turkumining birinchi payti 9, ikkinchi payti 8 va uchinchi payti esa 17 qo‘shiqlardan iborat bo‘lib, jami 34 tani tashkil etadi.

“Mavrigi” - turkumi esa, 1 payt-9, ikkinchi payt-8 (o‘zbekcha nusxasi - 7),

uchinchi payt 9 ta jami 33 ta qo'shiqlardan tarkib topgan. Bundan tashqari turkumdan 8 ta hazil va lirik qo'shiqlar o'rin olgan.

Mazkur qo'shiqlar yaratilish tarizi uzoq tarixga borib taqaladi. Ushbu bu qo'shiqlar asosan xalq yig'inlari, to'ylar va boshqa tadbirlarda ijro etilib, ularning birinchi kismi, ya'ni "Buxorcha"lar "Buxoro zang qo'shiqlari" nomi bilan ham mashhurdir. "Buxorcha" va "Mavrigi"lar ohang, ritm tuzilishi o'ziga xos bo'lib, ularning o'tmishda va hozirda alohida ijrochilari bor. Ushbu janrni Buxoroda o'tmishda Mulla Muhammadi Zangboz, Koko Muxammad, Ashur Kori, Kuka Ma'dali, Tula Xofiz, Kozim Raxim, Abdulla Kurbon, Maxsumi Ravgon, Raxim Dengiz, Bakojon Sa'dullayev, Kori Xabib, Xaydar Shodi, Bobo Muxsin, Bobo Abdullo, Usmon Sharof kabi xonandalar Mavrigixon hofiz singari nom chiqargan bo'lsalar hozirda ushbu janrni Buxorolik Mexri Ibodov, Orif Atoyev, Yusuf Shukurov, Alisher Bobojonov, Xamid shurov va Samarkandlik Mardon Mavlonov, Rustam Xojimuxammedov, Nasiba Abdullayeva kabi yosh xonandalar davom ettirmokdalar.

Qashqadaryo-Surxondaryoda – asosan doston va xalq qo'shiqlaridan iborat bo'lgan uslublar mavjud bo'lib, xonanda va baxshilar tomonidan ijro etiladi. Xorazmda esa, doston ijrochilik uslubi bo'lib ular hofizlar va xotin-qiz xalifalar ijrosida Tor va Garmon sozlari jo'rligida kuylanadi.

Farg'ona-Toshkent vohalarida esa katta ashula, dostonlar va tanavor, Nasrulloyi singari turkumlar mavjud bo'lib ular Xofiz va ayol xonandalar tomonidan jo'rsiz, ansambl, shuningdek, yakka doyra sozi jo'rligida ijro etiladi. Shunday kilib O'zbekiston har bir viloyat-xududining o'ziga xos mahalliy kuy va qo'shiqlari, shuningdek, ularning ijro uslublari mavjud bo'lib ular mazkur xududning ijtimoiy-tarixiy tuzilishini o'z ichiga olgandir.

## **O'ZBEK FOLKLORINING JANRLARI XUSUSIDA**

*Murodov M.B., SamDU Musiqa ta'limi kafedrasida katta o'qituvchi*

Folklor asarlari ham, barcha san'at namunalari kabi o'zlarining tuzilishi, badiiy xususiyatlari, qo'llanish o'rni va bajargan vazifalariga ko'ra muayyan janrlarga bo'linadi. Janr va janriy xilma-xillik tushunchalari hayotni badiiy tasvirlash shakllari sifatida juda uzoq davrlar mobaynida vujudga kelgan barqaror shakllar bo'lib, u juda sekinlik bilan o'zgarib boradi. Qadimgi grek filosofi Aristotel, nemis filosofi Gegel rus demokrati Belinskiylar badiiy ijodning uch turi-epos, lirika va drama mavjudligini e'tirof etadilar. Janr deganda folklorshunlikda badiiy shakl tiplari-ertak, doston, maqol, loflar, qo'shiqlar tushuniladi.

O'zbek volklori janrlari ijodkorlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Topishmoq, maqol singari janrlar ommaviy xarakterga ega bo'lsa, doston, og'zaki drama, ertak askiya ijrosi professional tayyorgarlikni taqozo etadi.

Shu sababli o'zbek folklorida xalq ijodkorlarining professionallashuvi nihoyatda rivojlangan baxshilar, ertakchilar, askiyabozlar, qiziqchilar, dorbozlar

## МУНДАРИЖА

<b>ХАМИДОВ О.Х.</b> Бухоро мусиқа фольклори – азалий ва абадий қадриятлар сарчашмаси	3
<b>І ШЎБА</b>	
<b>БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ БОРАСИДАГИ ЁНДАШУВЛАРДА МУАММО ВА ЕЧИМЛАР</b>	
<b>АБДУЛЛАЕВ Р.</b> Халқ мусиқа ижоди номоддий маданий мероси сифатида	4
<b>МАДРИМОВ Б.</b> Ўқувчиларга эстетик тарбия беришда ўзбек мусиқа фольклорининг аҳамияти	7
<b>АВЕЗОВ Р.</b> Мавриги рақсларининг анъанавий ижроси	11
<b>ЮСУПОВ Д.</b> Фольклор ва кўғирчоқ театри	15
<b>RUSTAMOV V.</b> Joylarda havaskorlik jamoalarini tashkil etish uslubiyoti	18
<b>РЎЗИЕВ Д.Й.</b> Фольклор кўшиқларининг ўзига хос хусусиятлари	22
<b>ҲАСАНОВ Ҳ.Р.</b> Халқ оғзаки ижодида – сўз санъатининг ўрни	26
<b>XIDIROV A.</b> Buxoro qadimgi saroy maktabida folklor uslublari tarixi	28
<b>SAIDIY S.B</b> Darvish Ali Changiy ta'limoti va zamondoshlari	30
<b>ISMOILOVA M.E</b> Buxoro “Buxorcha”si xususida	32
<b>NOROVA SH.U.</b> Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni xalq musiqasiga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish metodlari	35
<b>НУРУЛЛАЕВ Б.Г.</b> Бухоро фольклор кўшиқлари халқнинг ижодий маъсули сифатида	38
<b>АЛЛАЕВА З.</b> Ўзбек мусиқа ижрочилигида болалар фольклорининг аҳамияти	42
<b>НУРМАТОВА М.А., РАХИМОВ А.Э.</b> Фольклорная музыка и изустно-профессиональное творчество	44
<b>АЛЛАЯРОВА Н. Н.</b> Оилада болаларни халқ оғзаки ижоди намуналари асосида тарбиялаш методи	47
<b>MUXAMEDOV.T.DJ.</b> Xalq ogzaki ijodi bo'lgan folklor va uning xususiyatlari	50
<b>SAMIYeva M.</b> Buxoro musiqa folklorini tadqiq etish tarixidan	53
<b>SHAMSIYEV S.I</b> Folklor qo'shiqlarining lokal (maxalliy) ijro uslublari	56
<b>MURODOV M.B</b> O'zbek folklorining janrlari xususida	58
<b>ODILOV A.I.</b> O'zbek musiqa folklori haqida	60
<b>РАЖАБОВ Т.</b> Болалар фольклор кўшиқларини ўрганиш жараёнини такомиллаштириш юзасидан тажрибалар моҳияти	62
<b>РАХМАТУЛЛАЕВА G</b> Bolalar folklyor qo'shiqlarini o'rganishda milliy musiqiy ta'limning o'rni va ahamiyati	66
<b>SAMIYEVA M.</b> Buxoro musiqa folklorining tarixiy-nazariy va amaliy masalalari	69

*Muharrir:*  
*Texnik muharrir:*  
*Musahhih:*  
*Sahifalovchi:*

*G` Murodov*  
*G. Samiyeva*  
*A. Qalandarov*  
*M. Ortiqova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 03.11.2020. Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 16,0. Adadi 100. Buyurtma №168.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi  
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45